

# Comparative Analysis Of The Plural Form Of Nouns In Uzbekistan And English

**Uktamova Mokhigul Khamidullo-kizi**

Senior Lecturer, Faculty of Foreign Languages, FarSU

**Muhammadova Oydinoy,**

Student of the Department of Philology and Language Teaching: English,  
Fergana State University

## Annotation

This article analyzes the expression of the plural category in nouns in Uzbek and English. In the course of the research, the role of the plural category in the grammatical system of both languages and its significance in linguistics are highlighted. Also, the general principles of the formation of plural forms of nouns, their grammatical features and use in the speech process are studied on a scientific basis. The article identifies interlingual similarities and differences through the method of comparative analysis, and shows their theoretical and practical significance. The results of the study serve to enrich scientific views in the field of comparative grammar and provide theoretical and practical information that can be used in constructive linguistics and translation practice.

**Keywords:** plural category, number category, morphology, singular and plural, morphological and semantic plural, regular and irregular plural, acquired plural forms.

## Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida otlardagi ko'plik kategoriyasining ifodalanishi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida har ikki tilning grammatik tizimida ko'plik kategoriyasining tutgan o'rnini va uning tilshunoslikdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, otlarning ko'plik shakllarini hosil qilishga oid umumiy tamoyillar, ularning grammatik xususiyatlari hamda nutq jarayonidagi qo'llanishi ilmiy asosda o'rganiladi. Maqolada qiyosiy tahlil usuli orqali tillararo o'xshash va farqli jihatlar aniqlanib, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari qiyosiy grammatika sohasidagi ilmiy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi hamda konstruktiv lingvistika va tarjima amaliyotida qo'llanishi mumkin bo'lgan nazariy va amaliy ma'lumotlarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** ko'plik kategoriyasi, son kategoriyasi, morfologiya, birlik va ko'plik, morfologik va semantik ko'plik, muntazam va nomuntazam ko'plik, o'zlashgan ko'plik shakllari.

Zamonaviy tilshunoslikda grammatik kategoriyalarni qiyosiy jihatdan o'rganish tillarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday asosiy grammatik kategoriyalardan biri otlarga xos bo'lgan ko'plik kategoriyasi bo'lib, u miqdoriy munosabatlarni ifodalash bilan birga til tizimining semantik va strukturaviy jihatlari bilan uzviy bog'liqdir. Ko'plik kategoriyasi morfologiya va grammatika doirasida ko'plab tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda ushbu kategoriya faqat shakliy hodisa sifatida emas, balki semantik va funksional omillar bilan bog'liq murakkab grammatik birlik sifatida talqin qilinadi. Otlardagi ko'plik kategoriyasi bo'yicha qiyosiy grammatika nuqtayi nazaridan olib borilgan tadqiqotlar esa bu masalada tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash orqali umumiy lingvistik qonuniyatlarni yoritishga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida otlardagi ko'plik kategoriyasi muhim grammatik kategoriya sifatida bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. A.G'ulomov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Nurmonov, G'.Abdurahmonov hamda E.Begmatov<sup>1</sup> o'z ilmiy ishlarida o'zbek tili grammatik tizimi, xususan otlarning son kategoriyasi bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlarida mazkur kategoriyaning nazariy asoslari, grammatik xususiyatlari va til tizimidagi

<sup>1</sup> G'ulomov A. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1957; Shoabdurahmonov Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980; Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2001; Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek tili morfologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1974; Begmatov E. O'zbek tili morfologiyasi va so'z yasalishi. – Toshkent: Universitet, 1995.

o'zni haqida muhim ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Ushbu olimlarning fikr-mulohazalari o'zbek tilida ko'plik kategoriyasini ilmiy jihatdan o'rganish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi va quyida ularning qarashlari asosida mazkur masala batafsil tahlil qilinadi.

Ingliz tilshunosligida ham otlardagi ko'plik kategoriyasi grammatik tizimning muhim kategoriyasi sifatida olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, R.Kvirk, R.Hadlston, G.Pullam, O.Yespersen, L.Blumfeld hamda B.Komri<sup>2</sup> o'z tadqiqotlarida ingliz tilining grammatik qurilishi, xususan otlarning son kategoriyasi bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratganlar. Rus tilshunosligidagi V.Vinogradov va L.Sherba<sup>3</sup> tadqiqotlarida mazkur kategoriyaning grammatik tabiati, til tizimidagi o'zni va nazariy asoslari haqida muhim ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

A.G'ulomov<sup>4</sup> o'zbek tilida otlarning ko'plik shaklini asosan grammatik va ma'no jihatdan o'rganib, ularni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Morfologik ko'plik
2. Semantik ko'plik
3. Ko'plik ma'nosining kontekst orqali ifodalanishi
4. Hurmat ma'nosini bildiruvchi

Morfologik ko'plik o'zbek tilida ko'plik ma'nosining maxsus grammatik ko'rsatkich, ya'ni –lar affiksi yordamida ifodalanishidir. Bu ko'plikning eng asosiy va mahsuldor turi hisoblanadi. Masalan, *kitob – kitoblar, talaba – talabalar, daraxt – daraxtlar* shakllarida ko'plik ma'nosi aniq morfologik vosita orqali ifodalanadi va predmetning miqdor jihatdan bittadan ortiq ekanligini bildiradi. Bunday holatda –lar affiksi grammatik kategoriya ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi va otning son jihatdan o'zgarishini ta'minlaydi.

Semantik ko'plikda esa ko'plik ma'nosi maxsus qo'shimcha orqali emas, balki so'zning o'z leksik ma'nosi orqali ifodalanadi. Bunday otlar shaklan birlikda bo'lsa ham, mazmunan jamlikni anglatadi. Masalan, *xalq, el, olomon, yoshlar* kabi birliklar bir guruh shaxs yoki predmetlar yig'indisini bildiradi. see Bu yerda grammatik shakl emas, balki semantik mazmun asosiy rol o'ynaydi.

Ko'plik ma'nosining kontekst orqali ifodalanishida grammatik qo'shimcha ishlatilmasligi mumkin, biroq gap mazmuni, son bildiruvchi so'zlar yoki aniqlovchilar yordamida ko'plik anglashiladi. Masalan, *uch talaba keldi, ko'p odam yig'ildi* jumllarida *talaba* va *odam* so'zlari birlik shaklida bo'lsa ham, kontekst orqali ularning ko'plik ma'nosi aniqlanadi. Bu turda sintaktik va semantik omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Hurmat ma'nosini bildiruvchi ko'plik holatida –lar affiksi haqiqiy miqdoriy ko'plikni emas, balki ehtirom va hurmat ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *otamlar keldilar, ustozlar aytdilar* kabi gaplarda aslida bir shaxs nazarda tutiladi, biroq hurmat yuzasidan ko'plik shakli qo'llanadi. Bu hodisa ko'plik kategoriyasining nafaqat grammatik, balki uslubiy va pragmatik xususiyatga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

R.Kvirk<sup>5</sup> o'zining "Ingliz tilining keng qamrovli grammatikasi" (A comprehensive Grammar of the English language, 1985) kitobi asosida ingliz tilida ko'plik shakllarini morfologik va semantik xususiyatlariga ko'ra batafsil tasniflaydi. R.Kvirk ingliz tilidagi otlarning ko'plik shaklini quyidagi guruhlariga ajratadi:

1. Muntazam ko'plik (Regular plurals)
2. Nomuntazam ko'plik (Irregular plurals)
3. Nol ko'plik ( Zero plural)
4. O'zlashgan ko'plik shakllari (Foreign plurals)
5. Faqat ko'plik shaklida ishlatiladigan otlar ( plural-only nouns)
6. Faqat birlik shaklidagi otlar ( Singular-only nouns)

<sup>2</sup> Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985; Huddleston R., Pullum G. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002; Jespersen O. Modern English Grammar on Historical Principles. – London: Allen & Unwin, 1909–1949; Bloomfield L. Language. – New York: Holt, 1933; Comrie B. Number. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981.

<sup>3</sup> Виноградов В.В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). – Москва: Высшая школа, 1947; Щерба Л.В. О частях речи в русском языке. – Ленинград: Наука, 1957.

<sup>4</sup> G'ulomov A. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1957.

<sup>5</sup> Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985.

Muntazam ko'plik ingliz tilida eng keng tarqalgan shakl bo'lib, o'ning birlik shakliga –s yoki –es qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Bu ingliz tilida ko'plikning asosiy grammatik ko'rsatkichi hisoblanadi. Masalan, *book – books, student – students, box – boxes* shakllarida qo'shimcha aniq morfologik vosita sifatida xizmat qiladi va grammatik ma'noni ochiq ifodalaydi. Bunday holatda ko'plik formal ko'rsatkich orqali belgilanadi va tizimli xarakterga ega bo'ladi.

Nomuntazam ko'plik (Irregular plurals) shaklida esa otlar –s qo'shimchasini olmaydi, balki ichki tovush o'zgarishi yoki maxsus tarixiy shakl orqali hosil qilinadi. Masalan, *man – men, woman – women, child – children, foot – feet* kabi birlik va ko'plik shakllari o'rtasida fonetik o'zgarish kuzatiladi. Bu turdagi shakllar ingliz tilining tarixiy rivojlanishi natijasida saqlanib qolgan bo'lib, ular muntazam qoida asosida emas, balki an'anaviy shaklda qo'llanadi.

Nol ko'plik (Zero plural) holatida o'ning birlik va ko'plik shakli bir xil ko'rinishda bo'ladi, ya'ni maxsus qo'shimcha qo'shilmaydi. Masalan, *sheep – sheep, deer – deer, fish – fish* shakllarida grammatik forma o'zgarmaydi. Ko'plik ma'nosi esa gap tarkibidagi boshqa birliklar yoki umumiy kontekst orqali aniqlanadi. Bu yerda morfologik emas, balki semantik va sintaktik omillar muhim rol o'ynaydi.

O'zlashgan ko'plik shakllari (Foreign plurals) boshqa tillardan, ayniqsa lotin va yunon tillaridan kirib kelgan otlarning asl ko'plik shaklini saqlab qolgan variantlarini o'z ichiga oladi. Masalan, *phenomenon – phenomena, criterion – criteria, datum – data* shakllari ilmiy va rasmiy nutqda keng qo'llanadi. Bu shakllar ingliz tilidagi ko'plik tizimining tarixiy va leksik boyligini aks ettiradi. Faqat ko'plik shaklida ishlatiladigan otlar (Plural-only nouns) grammatik jihatdan doimo ko'plik hisoblanadi va birlik shakliga ega emas. Masalan, *scissors, trousers, clothes* kabi otlar ko'plikdagi fe'l bilan qo'llanadi va predmetning juftlik yoki tarkibiy tuzilishini bildiradi.

Faqat birlik shaklidagi otlar (Singular-only nouns) esa odatda sanalmaydigan otlar bo'lib, ko'plik qo'shimchasini olmaydi. Masalan, *information, advice, furniture* kabi birliklar grammatik jihatdan birlik hisoblanadi va birlikdagi fe'l bilan birikadi. Bu turdagi otlarda ko'plik ma'nosi zarur bo'lsa, qo'shimcha birliklar yoki miqdor bildiruvchi so'zlar orqali ifodalanadi.

O'zbek va ingliz tillarida otlarning ko'plik kategoriyasi grammatik tizimning muhim qismi bo'lib, predmetlarning miqdorini ifodalash bilan birga tilning morfologik, semantik va funksional xususiyatlarini namoyon etadi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikkala tilda ko'plik mavjud bo'lsa-da, uni ifodalash usullari va qo'llanishi turlicha.

O'zbek tilida ko'plikning eng mahsuldor shakli – *-lar* affiksi: kitoblar, talaba – talabalar, ingliz tilida esa *-s* yoki *-es* qo'shimchalari: *books, students, boxes* ishlatiladi. Nomuntazam shakllar har ikkala tilda mavjud: ingliz tilida fonetik o'zgarish orqali (*man – men*), o'zbek tilida esa semantik ko'plik shakllari (*xalq, el, olomon*).

Shuningdek, ko'plik ba'zan kontekst orqali ifodalanadi (*uch talaba keldi, three students arrived*). O'zbek tilida *-lar* affiksi hurmat ma'nosini ham bildiradi (*otamlar, ustozlar*), ingliz tilida esa bunday grammatik xususiyat yo'q. Ingliz tilida faqat ko'plikda ishlatiladigan otlar (*scissors, trousers*) va faqat birlik shaklida ishlatiladigan sanalmaydigan otlar (*information, advice*) mavjud. O'zbek tilida bunday cheklovlar kamroq.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida ko'plik tizimi muntazam va affiks orqali ifodalanadi, ingliz tilida esa morfologik va tarixiy shakllar aralashmasi mavjud. O'zbek tilida ko'plikning pragmatik va uslubiy funksiyasi ham muhim, ingliz tilida esa ko'plik faqat miqdoriy ma'noni bildiradi.

Natijada, har ikkala til ko'plik kategoriyasini ifodalashga ega bo'lsa-da, morfologik shakllar, semantik xususiyatlar va funksional qo'llanishi jihatdan farqlanadi. Bu qiyosiy tahlil tillarning struktural xususiyatlarini chuqurroq tushunishga va amaliy jihatdan tarjima, til o'qitish hamda lingvistik tadqiqotlarda qo'llashga imkon beradi.

Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillarida otlarning ko'plik kategoriyasini qiyosiy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, har ikkala tilda ko'plik grammatik tizimning muhim elementi bo'lib, predmetlarning miqdoriy munosabatini ifodalaydi, ammo morfologik shakllar, semantik xususiyatlar va funksional qo'llanish jihatidan farqlanadi.

O‘zbek tilida ko‘plikning asosiy vositasi – *-lar* affiksi bo‘lib, u morfologik va semantik jihatdan aniq ma‘no beradi va ba‘zan hurmat/pragmatik vazifani ham ifodalaydi. Ingliz tilida esa ko‘plik muntazam (*-s/-es*), nomuntazam (fonetik o‘zgarish yoki tarixiy shakllar), nol ko‘plik, o‘zlashgan ko‘plik shakllari, faqat ko‘plik yoki faqat birlik shaklida ishlatiladigan otlar kabi turli usullar orqali hosil qilinadi. Bu farqlar ingliz tilining tarixiy rivojlanishi va leksik boyligi bilan bog‘liq.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, ko‘plik kategoriyasi nafaqat morfologik vosita sifatida, balki semantik va funksional jihatdan ham tilning struktural tizimida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tadqiqot natijalari qiyosiy grammatika sohasidagi nazariy bilimlarni boyitadi, konstruktiv lingvistika va tarjima amaliyotida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan ilmiy asos yaratadi.

Shuningdek, o‘zbek va ingliz tillarida ko‘plik kategoriyasining o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash tilshunoslikda umumiy va tilga xos qonuniyatlarni tushunishga yordam beradi hamda lingvistik tadqiqotlar, til o‘qitish va tarjimada amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

## REFERENCES

- Abdurahmonov G‘. Hozirgi o‘zbek adabiy tili grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
- Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik asoslari. – Toshkent: Fan, 1985.
- Khodjaeva, D. I., & Mustafoyeva, P. U. (2020). Position and combination of sounds in speech. *International Journal on Integrated Education*, 3(1), 182.
- Xodjayeva, D. I., Abulova, Z. A., Ochilova, N. M., & Sodiqova, G. D. (2020). TRAINING PROBLEM IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING, CONTINUATION IN THEIR TYPOLOGY AND EXERCISE. *Theoretical & Applied Science*, (6), 158-161.
- KHODJAYEVA, D., & SAIDOVA, Z. (2021). THE ORIGIN AND JUSTIFICATION OF THE TERM TAXIS IN LINGUISTICS. In *E-Conference Globe* (pp. 375-379).
- Kurbanova, N. (2017). Efficient ways in teaching writing in ESL classes. *Интернаука*, 7(11 Часть 3), 21.
- Kurbanova, N. (2017). New techniques in teaching idioms for EFL learners. *Интернаука*, 7(11 Часть 3), 19.
- Kurbanova, N. (2018). Speaking activities as a main tool for developing self-confidence. *Интернаука*, (9), 25-27.
- Raxmatulloevna, K. R., & Oktamovna, O. M. (2022). The Distinctive Writing Style of Arthur Conan Doyle. *International Journal on Integrated Education*, 5(4), 197-201.
- Rakhmatulloevna, K. R. (2016). Uzbek national cuisine ethnographisms in English translations. *UCT Journal of Social Sciences and Humanities Research*, 4(2), 20-25.
- Kasimova, R. R. (2022). Comparative study of a Writer’s and Translator’s Psychology in the English translation of “Kecha va Kunduz”. VI. *Uluslararası Türklerin Dünyası Sosyal Bilimler Sempozyum*. Moldova, 13-15.
- Kasimova, R. R., Ziyadullayev, A. R., & Ziyadullayeva, A. A. (2019). COMPARISON OF CEREMONIES AND LEGENDS ASSOCIATED WITH THE BELIEF IN REVERENCE FOR WATER. *Theoretical & Applied Science*, (6), 120-124.
- Jalilova, L. (2020). National Specificity of American Satirical Short Stories. *Philology Matters*, 2020(2).
- Жалилова, Л. Ж. (2018). СПЕЦИФИКА АМЕРИКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ XX ВЕКА. Теория и практика современной науки, (3 (33)), 198-203.
- Жалилова, Л. Ж. (2016). Сатира А. Бирса в свете фольклорных и литературных традиций. На пересечении языков и культур. Актуальные вопросы гуманитарного знания, (1), 295-299.
- Urayeva, D., & Nazarova, G. (2021). COMPARATIVE ANALYSIS OF MYTHOLOGICAL NAMES AND MYTHOLOGISMS IN THE ENGLISH AND UZBEK LITERATURE. *Philology Matters*, 2021(1), 3-21.

- Nazarova, G. P., Umurova, K. H., & Kasimova, N. F. (2020). Peculiarities of the mythological images of the British folklore. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(8 Special Issue), 1614-1618.
- Kobilova, N. S., & Nazarova, G. P. (2016). Elaborated methods in the light of writing. *International scientific journal*, (4 (2)), 34-36.
- Nazarova, G. P. (2019). Women mythological characters in British and Uzbek literature. *Экономика и социум*, (2 (57)), 14-17.
- Khajieva, F. M. (2021). The rise and development of the american biographical novel. *JournalNX*, 7(06), 262-267.
- Melsovna, K. F. (2021). Cosmopolitanism through intertextual devices in the postmodern biographical novel. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 156-161.
- Kholikova, N. N. (2019). Translation and its studies (according to JH Chase's Uzbek translated works). *Theoretical & Applied Science*, (10), 652-655.
- Safarova, Z. (2022). Реалистичное художественное изображение жизни сирот в романе Диккенса "Оливер Твист". *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ(buxdu. Uz)*, 13, 13.
- Safarova, Z. (2020). Analysis of orphan images and orphanhood in children's literature. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 1(1).
- Khayatovna, N. M. UDC: 398.93 English And Uzbek Blessings Which Formed By The Belief Of Magic Words. *Scientific Reports Of Bukhara State University*, 72.
- Niyazova, M. K., & Subkhonova, N. M. (2023). Creation of Robinson Crusoe Novel. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 1(5), 28-31.
- Niyazova, M. K., & Temirova, M. (2023). Semantic analysis of old english phraseological units. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 12(3), 35-39.
- Khayatovna, N. M. (2022). Commonalities of English and Uzbek blessings. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 406-410.
- Kilicheva, M. R. (2023). Interpretation of Dreams In—Jane Eyrell And—«Wide Sargasso Sea»ll. *Scientific Reports Of Bukhara State University*, 4, 239-242.
- Kilicheva, M. (2022). Принципы Духовного Анализа В Художественном Результате Одиночества В Английской Поэзии. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 8(8).
- Kilicheva, M. R. (2019). DEPICTION OF HUMAN PSYCHE IN ULUGBEK KHAMDAM'S NOVEL " LONELINESS". *Theoretical & Applied Science*, (12), 678-680.
- Narzullayeva, F. (2021). ВЫРАЖЕНИЕ СЛОВА «ГОЛОВА» В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ФРАЗАХ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 3(3).
- Grinev-Griniewicz, S. (2016). Polysemy in language and thought. *Crossroads. A Journal of English Studies*, (01 (12)), 19-30.
- Olimovna, N. F. (2022). Contrastive Analysis of the "Head" in English and Uzbek Languages. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 410.
- Ziyodullaev, A. R. (2024). EPONYMS IN ONOMASTICS: LINGUISTIC, CULTURAL, AND HISTORICAL DIMENSIONS. *AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 2(5), 56-61.
- Ziyodullayev, A. R. (2022). UZBEK EPONYMS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 47-49.
- Kasimova, R. R., Ziyadullayev, A. R., & Ziyadullayeva, A. A. (2019). COMPARISON OF CEREMONIES AND LEGENDS ASSOCIATED WITH THE BELIEF IN REVERENCE FOR WATER. *Theoretical & Applied Science*, (6), 120-124.
- Blumfield L. *Language*. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1933.
- Comrie B. *Language Universals and Linguistic Typology*. – Chicago: University of Chicago Press, 1989.